“MU’IN UL-MURID” ASARI VA UNING MUALLIFLIGI MASALASI

Abduqodirova Zarnigor To‘raqul qizi
O‘zMU magistranti
Zarnigorabduqodirova077@gmail.com

Received: 27.10.2025
Revised: 28.10.2025
Accepted: 29.10.2025

Kalit so‘z:
Nazmiy didaktik asar, agiografiya, mualliflik masalasi, xorazm turkchasi, Shayx Islom, Shayx Sharaf.

Keywords:
Poem didactic work, hagiography, an authorship of book, khorezm turkish, Sheyx Islam, Sheyx Sharaf.

Ключевые слова:
Тихотворение-дидактическая работа, агиография, вопрос об авторсво, хорезмский турецкий, Шейх Ислам, Шейх Шараф.

Annotatsiya. Maqolada XIV asrda Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan “Mu’in ul-murid” didaktik asarining yozilish sabablari va asar mazvusiga to‘xtalib o‘tilgan. Asarning muallifi borasidagi fikrlarga ilmiy munosabat bildirilgan. Shuningdek, agiografik yo‘nalishda yozilgan asarlar haqidagi ilmiy ma’lumotlar va ularga munosabat, asarning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Annotation. The article focuses on the reasons for writing and content of the didactic work “Mu'in ul-murid” written in verse form, created in the 14th century in Eastern classical literature. A scientific attitude was expressed to the opinions about the author of the work. Also, the genre of wisdom in the works written in the hagiographic direction is defined and its characteristics are revealed.

Аннотация. В статье рассматриваются причины написания и жанровые особенности написанного в поэтической форме дидактического произведения «Муъин ульмурид», созданного в классической литературе Востока в XIV веке. Высказано научное отношение к мнениям об авторе работы. Также определен жанр мудрости в произведениях, написанных в агиографическом направлении, и раскрыты его характеристики.

Ushbu maqolada biz XIV asr musulmon agiografiyasiga oid “Mu’in ul-murid” asarini o‘rganishni maqsad qilib olganmiz, shu sababli bu davr adabiyoti bilan tanishib chiqamiz. Agiografik asarlarni o‘rgangan B.Nazarov musulmon agiografik adabiyotining shakllanishi va rivojlanishini uch davrga bo‘lib o‘rganadi: “Birinchi davr VIII – IX asrlarni qamrab oladi. Bu davr agiografiyasining asosiy xususiyati shundaki, bunda hikoya qilinayotgan voqealar qamrab olingan davrga nisbatan yaqindir…shuningdek, diniy aqidalar ustuvor bo‘lgan; ikkinchi davr X asrdan boshlanib, XII asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu davr musulmon agiografiyasida birinchidan, turli tilda asarlar yaratila boshlandi, ikkinchidan, tarixiylik xususiyatidan ko‘ra badiiy to‘qima va rivoyatchilik xususiyati,

ya’ni ideallashtirishga e’tibor kuchaydi; uchinchi davr XIII – XV asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda musulmon dunyosi mo‘g‘ul bosqinchilari zulmini boshidan kechirdi va asta-sekin bu zulmdan ozod bo‘lib, madaniy hayot jonlandi, natijada agiografik adabiyotga ham yangidan ehtiyoj paydo bo‘lib, o‘tgan asrlarda yashagan shayxlar va avliyolarning hayoti haqida hikoya qiluvchi asarlar ko‘paydi”[1], shu sababli biz obyekt sifatida aynan XIII – XIV asrlarga oid agiografik asarlarni tanlashni ma’qul ko‘rdik, boisi bu davrga mansub agiografik asarlarda badiiylik belgilari yuqori hamda adabiy-badiiy jihatdan tahlil qilish o‘zini oqlaydi.

Ushbu davrga oid nazmiy didaktik adabiyotlardan biri bo‘lmish “Mu’in ul-murid” asari qadimgi Xorazmda 713/1313-1314-yili arab bo‘lmagan musulmonlar, aniqrog‘i turkmanlar uchun din arkonlari va fiqh masalalarini oson va tushunarli o‘rganishlari uchun zaruriy qo‘llanma o‘laroq yaratilgan. Mazkur asar turkiylar uchun tushunarli bo‘lgan tilda: qoraxonli turkchasining o‘g‘uz va qipchoq lahjalari qorishmasi natijasida vujudga kelgan xorazm turkchasida yozilgan. Asarning ilmga ma’lum bo‘lgan yagona nusxasi Bursa shahridagi yozma va bosma eski asarlar saqlanadigan kutubxonada saqlanadi. Asar bilan turli yillarda Z.V.Tog‘an, F.Ko‘prulu, J.Eckman, A.Bodrogligeti, A.Karamano‘g‘li, N.Xalimov, Ch.Go‘klenov, R.Toparli, M.Argunshoh kabi olimlar o‘rgangan, o‘z fikrlarini bildirgan. Kitob diniy-mistik mazmunda yozilgan 407 to‘rtlikdan iborat, mutaqorib bahrida (faulun faulun faulun faul). Bu asar Turkiyada 2008-yilda Recap Toparli va Mustafa Argunshah tomonidan qayta o‘rganildi va chop etildi.[2] “Mu’in ul-murid” asari she’riy to‘rtlik shaklida yozilgan bo‘lsa-da, alohida bo‘limlarga ajratilgan, har bir bo‘limga nom berilgan.

Asar muallifligi masalasi hozirgacha bahsli mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Asar muallifligi bo‘yicha o‘zbek olimlaridan Abulg‘ozi Baxodirxon, Abdurauf Fitrat hamda Olim Sharafiddinovlar munosabat bildirishgan. Turk olimlaridan Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on, Fuad Ko‘prulu, shuningdek, amerikalik olim A.J.E.Bodrogligeti ham ayni masalasi yuzasidan o‘z fikrlarini bildirishgan. Asar muallifligi borasida ikki xil qarash mavjud. Birinchi qarashga ko‘ra asar muallifi sifatida Shayx Islom belgilansa, ikkinchi qarashga ko‘ra asar muallifi Shayx Sharaf Hojadir. “Mu’in ul-murid” asarining 402-to‘rtligida muallif ismi Islom ekanligini ta’kidlaydi:

Bu kach so‘z ayitgan ati islam ol
Tileki ahir vaqt iman islam ol
Atam baba islam veliyyu’l-vera
O‘zi zikri tilde tumen aslam ol.

(mazmuni: bu bir necha so‘zni aytgan kishining oti Islomdir. Orzusi umrining oxirigacha iymon va islomdir. Mening otam Bobo Islom ismli avliyodir. Uning zikri

[1] Назаров Б.Н. Ислом агиографияси тизимида мақоматнинг ўрни ва унинг бадиий-услубий хусусиятлари (Баҳоуддин Нақшбанд мақоматлари асосида). Филология фанлари докторлик дисс. – Тошкент: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2000. – Б. 23.

[2] Recep Toparlı, Mu’inü’l-Mürid, Atatürk Ünıversitesi Fen-Edebiyat Fakültesı Yayınları, Nu: 15, Erzurum,1988.

dilda ming ne’matdir). Ushbu misralardan kelib chiqib asar haqida tadqiqot olib borgan ko‘plab olimlar asar muallifi sifatida Islomni keltiradi, biroq A.Z.Validiy To‘g‘on bu misra mazmunidan muallifning ismini aniqlash unga biroz mushkul tuyulganligini ta’kidlagan.[3] F.Ko‘prulu ham xuddi shunday ikkilanishlarni boshdan kechirgan va asar muallifi Shayx Sharaf degan xuloasaga kelgan.[4] J.Eckmann asar Islom ismli kishi tomonidan yozilganini qabul qilsa-da, asarni Shayx Sharaf yozgan bo‘lishi mumkinligi haqidagi xuloasalarini ham bildirgan. Asarning transkripsion nusxasini tayyorlagan olim A.F.Karamanlio‘g‘lu “Mu’in ul-murid” asari muallifi Shayx Sharaf degan qat’iy xulosaga kelgan va asarni uning nomi bilan nashr ettirgan.

“Mu’in ul-murid” asarida shoir o‘zi haqida deyarli ma’lumot bermagan. Faqatgina asarning “ Qalb va nafs bayoni ” bobining 349-to‘rtligida Shayx Sharaf Hoja nomi uchraydi:

Ko‘ngul nefs-u ruhdin netije erur
G‘alib bolsa biri angar yuz urur
Biling bu beyan Sheyx Sharaf Hajening
Mebadi sulukda bitiglig turur.

(mazmuni: Ko‘ngil nafs va ruhning natijasidir. Qaysi biri g‘olib bo‘lsa unga yuz tutadi. Bilingki, bu bayon Shayx Sharaf Hojaning “Mebadi suluk” asarida ham aytilgan). Ushbu to‘rtlik bizga asar muallifi Shayx Sharaf Hoja ekanligi va uning “Mebadi suluk” nomli yana bir asari bor ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu asar va uning muallifi borasidagi qimmatli ma’lumotlar A.Bahodirxonga tegishlidir. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining “Shajarayi tarokima” asarining “So‘ng turkman bo‘lib, turkmanlarg‘a qo‘shilg‘on ellarlar zikri” bobida asar haqida quyidagi ma’lumotlarni yozib qoldirgan:

“Xizr eli salur elindin Abulxonda Arsariboy tegan bor erdi, uzoq umr topqan, davlatli va musulmonliqqa qo‘shish qila turg‘an kishi erdi. Bu so‘zimizning dalili bu kim ul zamonda Urganchda bir aziz kishi bor erdi, Sharif otli. Shayxlik masnadinda o‘lturg‘an ham mulla erdi. Arsariboy borib shayxi mazkurga qirq teva niyoz berib, inobat qilib, iltimos yuzindin arz qildikim biz kim turk xalqi tururmiz, arabiy kitoblarni o‘qub, ma’nisiga yetishib amal qilmaqliq basi mushkul bo‘la turur. Agar arabiy masalalarni turkiy tarjima qilib, inoyat qilsangiz erdi, savobga sherik bo‘lardingiz tedi ersa, shayx Sharafxo‘ja taqi barcha mas’alayi diniyni tarjima qilib, bir kitob etib, “Muayyinul murid” ot qo‘yub Arsariboyg‘a berdi. Ul vaqtdin to bu kungacha barcha turkmanlar ul kitobning mas’alalarig‘a amal qilatururlar.” Ushbu tarixiy ma’lumotlari bilan Abulg‘ozi Bahodirxon nafaqat asarning muallifligi masalasini, balki asar yozilish sabablarini ham yoritib o‘tgan. Darhaqiqat, bu davrda islomga e’tibor kuchli edi va islom arkonlarini o‘rganish uchun kitoblarga ehtiyoj bor edi. Ayni shu sababli davlat hukmdorlari ilm ahliga homiylik qilishgan. Ashxabod turkmanlari A.Bahodirxon “Mu’in ul-murid” asari muallifi sifatida aytib o‘tgan

[3] A.Zeki Velidi, “Harezm’de Yazilmiş Eskı Türkçe Eserlar, Türkıyat Mecmuası, II, 1926, İstanbul, 1928, s.315-345
[4] Fuad Köprülü. Turk Edebiyyatı Tarihi. – Istanbul, 1926, s. 347

Shayx Sharafni “Ravnaq ul-islom” nomli asar muallifi sifatida ko‘rsatadi. A.Z.Validiyning yozishicha, Ashxabod turkmanlari tomonidan og‘zaki tilda aytilgan va 1906-yilda yozib olingan bu rivoyatda: qadim zamonda Shayx Sharaf ismli bir valiy yashagan. Xiva va Xiva atrofida yashovchi ko‘chmanchi qabilalar ushbu shayxga musulmonlar uchun turkiyda kitob yozishini iltimos qilishadi. Shunda Shayx Sharaf “Ravnaq ul-islom” nomli kitob yaratadi. Keyin o‘z ulovida Xivadan Nuhurga ketganini, hozir Shayx Sharafning qabri Nuhurda va nuhurliklarning ko‘pchiligi o‘zini shayxning avlodi sifatida ko‘rishini hikoya qiladi. Biroq Zaki Validiyning izlanishlariga ko‘ra “Ravnaq ul-islom” asari unga taalluqli emas, asarning qo‘lyozma nusxasida Vafoiy ismi qayd etilgan. A.Validiy Shayx Sharafning Xorazmlik olim ekanligini ta’kidlaydi. U turkmanlar, o‘zbeklar va to‘bol turklari orasida juda mashhur shayx sifatida tanilganini, turkmanlarga islom dinini o‘rgatish maqsadida turkiy tilda asarlar yozgan olim sifatida taassurot qoldirganini hamda “ Mebadi suluk” deb atalgan tasavvufiy kitob yozganligi haqida aytgan. Ko‘pruluning ma’lumotlariga ko‘ra, 1300-yillarning ikkinchi yarmi 1400-yillarning boshlarida yashagan va Yassaviya silsilasining mashhur shayxi Zangi otaning muridi bo‘lgan Xorazmlik Shayx Sharafning mozori hozirda Urganchdadir. Bu shayxning shuhrati nafaqat turkmanlar orasida juda baland bo‘lgan, balki o‘zbeklar orasida ham “doston qahramoni” sifatida tanilganini ta’kidlaydi. Garchi turli olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar aytib o‘tilgan bo‘lsa-da, bizning obyektimizga makon va zamon jihatdan eng yaqini, albatta, “Shajarayi tarokima” asaridir va shu jihatdan undagi fikrlar asoslidir. A.Bahodirxon o‘z davrining yetuk tarixchi olimi ekanligi ham fikrimizni dalillaydi. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib aniq xulosa qiladigan bo‘lsak, “Mu’in ul-murid” asari muallifi sifatida Shayx Sharaf tan olingan va biz ham ushbu fikrni ma’qul deb topdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Manbalar

1. Recep Toparli, Mustafa Argunşah. Mü’inü’l-mürid. Inceleme-Metın- Çeviri-Dizin-Tipkibasım. ANQARA, 2008. – 322 c

2. Ilmiy adabiyotlar

2. A.Zeki Velidi, “Harezm’de Yazilmiş Eskı Türkçe Eserlar, Türkıyat Mecmuası, II, 1926, İstanbul, 1928, s.315-345
3. Aysu Ata, “ Recep Toparlı, Mu’inü’l-Mürid, Atatürk Ünıversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Yatınları Nu:15, Erzurum 1988, LXXII+287 s.” , OTAM (=Ankara Üniversitesi Osmanlı Tarihı Araştırma ve Uygulama Merkezi Dergisi) , S.10, Ankara, 1999,s. 389-406.
4. Abulg‘oziy Baxodirxon. Shajarayi tarokima. T.,1995-26-bet

5. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. -Toshkent.Ma'naviyat,2000, 55-60betlar

6. Назаров Б.Н. Ислом агиографияси тизимида мақоматнинг ўрни ва унинг бадиий-услубий хусусиятлари (Баҳоуддин Нақшбанд мақоматлари асосида). Филология фанлари докторлик дисс. – Тошкент: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2000. – Б. 23.